Sarhisob: “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalarida o‘tgan 2024-yilda mahalliylashtirish dasturi doirasida 30 ta loyiha amalga oshirildi

// 07 January 2025 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/sarhisob-o-zkimyosanoat-aj-tarmoq-korxonalarida-o-tgan-2024-



Bugun, iqtisodiyotning o‘sishi bilan kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanish darajasi ham mutanosib ravishda o‘sib bormoqda. Bu mahalliy sanoatni yanada rivojlantirish, ishlab chiqarishda qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish, ichki tarmoq va tarmoqlararo kooperatsiyani kengaytirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlarini ko‘paytirish maqsadida kimyo sanoatining salohiyatini kengaytirishga qaratilgan choralar bilan ham izohlanadi.

Qolaversa, mahalliylashtirish dasturining samarali ijrosiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. “O‘zkimyosanoat” AJ tzimidagi korxonalarda 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida mahalliylashtirish dasturiga asosan 30 ta loyiha amalga oshirildi. Loyihalar doirasida rejada 3,12 trln so‘mlik mahsulot tayyorlash ko‘zlangan bo‘lsa, amalda 3,86 trln so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Bu bilan reja 123,6 foizga bajarildi.

Korxonalar tomonidan natriy sianid, polivinilxlorid (PVX), natriy gidroksid, “A” markali

metanol, tiomochevina, sulfat kislotasi, poliakrilamid, kalsiy nitrat, oltingugurt-magniy mikroelementli karbamid, zichligi past ammoniy nitrat eritmasi, modifikatsiyalangan g‘ovakli selitra, ammoniy karbonat tuzi, vanadiyli katalizator, karboksimetilsellyuloza (KMS), “A” markali kalsinatsiyalangan soda, texnik formalin, KFK-85, natriy xlorat kabi muhim bo‘lgan xom-ashyo va tayyor mahsulotlar tayyorlandi.

Bundan tashqari ammiakli selitrani gigroskopikligini kamaytirish uchun Antiyopishqoq (NovoFlow 3047)ning o‘rnini bosuvchi yangi turdagi “Anti-Stick” Antiyopishqoq, Gidroksipropilmetil-sellyuloza (HMPC), paxta sellyulozasi, yuqori bosimli laminat, tibbiy simulyatorlar, ammoniy xlorid, kaliy sulfati kabi mahsulotlar ichki va tashqi bozorlarga yetkazib berildi.

Albatta, 2025-yilga mo‘ljallangan rejalar ham ulkan. Joriy yilda tarmoq korxonalari hamda kimyo-industrial texnopark hududlarida investitsiya loyihalari doirasida jami 170 mlrd so‘m yoki 13,1 mln dollarga teng 7 turdagi yangi loyihalarni ishga tushirish ko‘zda tutilgan. Bunda o‘rta haroratli katalizator, koagulyant, katalitik tizimlarni ishlab chiqarish, ko‘pikli polipropilendan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, polikarboksilat, bir martalik tibbiy kiyim, EVA bilan modifikatsiya qilingan polietilen plyonka, maishiy va avtomobil kimyoviy moddalarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

Shu bilan birga ayni paytda mahalliy korxonalar bilan sanoat kooperatsiya aloqalarini kengaytirish bo‘yicha ham bir qator import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni mahalliylashtirish bo‘yicha tashkilliy ishlar boshlangan.

Jumladan, kompensator, barbotyor, shnek vali, membranalar to‘plami, gidrotsiklon nasadkasi kabi mahsulotlarni mahalliy korxonalar bilan sanoat kooperatsiya aloqalarini o‘rnatish va kengaytirish ko‘zda tutilgan.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati